

TEMURIYLAR DAVRIDA KITOBOT SAN'ATI.

Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li.
e-mail: mominovnodir04@gmail.com

Tel: +998902494943

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi.

Annotatsiya: *Movarounnahr diyorida ikkinchi renesannas davri bu Temuriylar davri ekanligini olimlar haqli ravishda tan olgan. Bu davrda barcha fanlar, san'atning har bir turi, ilm-fanning har bir sohasi nihoyatda rivojlangan davridir. Bu davr shoirlari va kitobxonlari o'z davri uchun shu sohalarda dunyoga o'rnak bo'lgan desak ham adashmagan bo'lamiz. Temuriylar davrida kitob san'ati har qaysi sohalarga nisbatan ko'p taraqqiy etgan. Ushbu davr tarixchilari-yu, shoirlari o'z davri uchun qimmatli kitoblarni yozgan, jamlagan va avlodlarga meros qoldirgan. Ushbu maqola ham Temuriylar davridagi kitob san'ati haqida manbalar asosida juda keng ma'lumotlar berib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: Amir Temur, Samarqand, Hirot, Nastaliq, Sultonali Mashhadiy.

Аннотация: *Ученые справедливо признали, что вторым периодом Возрождения в Моваруннахре является период Тимуридов. В этот период высоко развиты все науки, все виды искусства, все области науки. Не будет ошибкой сказать, что поэты и читатели этого периода были для своего времени примером для мира в этих областях. В период Тимуридов книжное искусство значительно развилось по сравнению с другими областями. Историки и поэты этого периода писали, составляли и передавали ценные для своего времени книги. В этой статье также представлена обширная информация о литературном искусстве периода Тимуридов на основе источников.*

Ключевые слова: Амир Темур, Самарканд, Герат, Насталик, Султанали Мешхади.

Abstract: *Scientists have rightly recognized that the second renaissance period in Movarounnahr is the period of the Timurids. In this period, all sciences, every type of art, every field of science are highly developed. It would not be wrong to say that the poets and readers of this period were an example to the world in these areas for their time. During the period of Timurids, book art developed a lot compared to other fields. Historians and poets of this period wrote, compiled and passed down valuable books for their time. This article also provides extensive information about book art during the Timurid period based on sources.*

Keywords: Amir Temur, Samarkand, Herat, Nastaliq, Sultanali Mashhady.

XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda, xususan Hirotda me'morchilik bilan birga kitobot san'ati, ya'ni qo'lyozma asarlarni ko'chirib yozish va bu bilan bog'liq bo'lgan xattotlik, musavvirlik, lavvohlik (lavha chizish), Sahhoflik (muqavasozlik) san'ati ham yuksak darajada edi. Kitobot san'atining ma'lum bir sohasiga aylanib, nafis kitob va san'atning bebaho va tengsiz asari hisoblanardi. Bosmaxona va kitob nashr etish hali vujudga kelmagan paytlarda kitoblarni yaratish kuchli malaka talab etgan. Bu davrda zamonasining eng yaxshi soha namoyondalari yetishib chiqqan. Nafis kitob yaratish murakkab jarayon bo'lib, u qog'ozrez, (qog'oz tayyorlovchi), xattot, musavvir, lavvoh, sahhof ka'bi bir necha xil mutaxassislarining mehnati va malakasi bilan bog'liq edi. Nafis kitob va xattotlik san'ati XIV-XV asrlarda yangi bir davr taraqqiyoti bosqichiga kirdi.

Buyuk xattot Mirali Tabriziy (1330-1404) *nastaliq* deb nomlangan yangi uslubdagi xatni yaratdi. Bu uslub xatti *kufiy*, xatti shikasta, nasx, va boshqa uslubdagi dastxatlar o'rnini egalladi. Nastaliq uslubida ayniqsa Sultonali Mashhadiy boshliq Xirot xattotlari faoliyati bilan keng tarqaladi va o'z rivojining yuksak bosqichiga yetadi. "Xatti Xirotiy" deb shuhrat topgan ushbu uslub bir qancha Sharq mintaqalarida asrlar davomida yetakchi uslub bo'lib qoladi ¹.

Umuman Temuriylar davrida bu soha juda yaxshi rivoj topgan. Buni o'sha zamon tarixchilari ham o'z asarlarida, kitoblarida yoritib o'tadi. Xususan Ibn Arabshoh Amir Temur Samarqandda to'plagan mashhur olimlar, munajjimlar, san'atkorlar o'z xotirasida tilga olib, Tabrizlik mohir xattot Ibn Badgir, Tojuddin as-Salmoniy, munajjim va misgar mavlono Ahmad, naqqosh Oltunlar nomini alohida qayd qiladi ².

Ibn Arabshoh aytganidek, Amir Temur saltanatida juda mohir naqqosh va musavvirlar juda ko'p bo'lgan. Agarda faqat Amir Temurning hukmronligi davrdagi ijod qilgan musavvir-u naqqoshlarni emas, balki Temuriy shahzoda va hukmronlarni davridagi "Sanoi nafis" ahlini ham hisobga olsak ularning soni yana ham oshib ketadi. Navoiyning "Majolis-un-nafois"ida musavvirlik bilan mashg'ul bo'lgan shoirlar mavlono Xavofiy, mavlono Xavoiy, mavlono Fig'oniy, mavlono Fazliy, Ustod Qul Muhammad, mavlono Sharbatiy, Xoja Kamoliddin Xusayn, zargar va misgar mavlono Yoriylar ijod qilgan. Bularning barchasi madaniy hayotning barcha jabhalarida sermahsul ijod qilgan. Kitob san'atida ham, memorchilik sohasida ham va boshqa sohalarda ham ijod qilib ajoyib san'at asarlarini yaratgan ³.

Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xiraviy, Mir Imoda va boshqalarning go'zal va chiroyli, nafis fragmentlari naqshchi-rassomlar tomonidan dabdabali kuzatilib, ular ayrim ajoyib miniatyuralarga qaraganda ancha qimmat turgan. Qo'lyozmani qanday

¹ Muhammadjonov Abdalaxad. "TEMUR VA TEMURIYLAR SALTANATI" Toshkent-1994. 137-138 b.

² Rahmonov M, Umarov a. «AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIYAT VA SAN'AT» (maqolalar) Toshkent-1996. 20-23 b.

³ Rahmonov M, Umarov a. «AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIYAT VA SAN'AT» (maqolalar) Toshkent-1996. 23-25 b.

bezash ko'p hollarda kitob kattaligiga ya'ni hajmiga ham bog'liq edi. Misol uchun Alisher Navoiyning "Xamsa" sig'a o'xshash kitob bir muqova ichiga joylashtirilgan bir necha asar yoki dostonidan iborat bo'lsa, unda uning uchun katta hajm belgilanardi. Uncha katta bo'lmagan devonlar yoki risolalar uchun kichik hajm tanlanardi. Alisher Navoiy "Xamsa" sining Sankt-Peterburgda saqlanayotgan, 1492-1493 yillarda ko'chirilgan mashhur nushasi Temuriylar davrining miniatyuralarsiz bezatilgan badiiy qo'lyozmalari durdonalari sirasiga kiradi.

Zarxalchi-naqqosh Mavlono Yoriy xar bir dostonning ayrim saxifalarida naqsh qismlarini turli uyg'unlikda bergan, ular nafis qo'lyozma bezagining o'ziga xos elementi hisoblanadi. Bu ishi bilan rassom qo'lyozma bo'yicha badiiy bezakning zaruriy yaxlitligi va mushtarakligiga erishadi. Qo'lyozma nihoyasida juda chiroyli ishlangan bezaklar nisbatdagi asosiy guruh bezaklaridandir. Qadimiy qo'lyozmalarning muqova namunlari ham bizga qadar saqlanib qolgan. "Xamsa" qo'lyozmasi bizgacha o'zining eng birinchi muqovasida yetib kelgan bo'lib, uni mashhur xattot Sulton Ali Marviy ishlagan. Qo'lyozma muqovasi juda eskirganiga qaramay o'zining betakror go'zalligi bilan kishi aqlini hamon hayron qoldiradi. Charm qopqoqdagi nozik va nafis naqshlar va muqovaning sof oltindan yasalgan klapanlari, oltinning bir necha ranglarda tovlanishi, nafis uyg'unligi hali ham kishini lol qoldiradi. Bu Temuriylar davri badiiy muqovasozligining mumtoz namunasi ⁴.

Ushbu davrda Temuriy hukmdorlar devonxonalarini qoshida, xususan Samarqand va Hirotda maxsus saroy kutubxonalarini tashkil etilgandi. Bunday kutubxonalar o'rta asrlarning o'ziga xos hunarmandchilik korxonalarini ham bo'lib, ularda qo'lyozma asarlarini toplash va saqlash bilan birga, ulardan nushalar ko'chirish, turli manzarali rang-barang sur'at va tasvirlar va naqshinkor lavhalar bilan sahifalarni bezash hamda muqovalash ka'bi kitobsozlik bilan bog'liq bo'lgan bir qancha amaliy ishlar bajarilgan. Bunday saroy kutubxonalarining boshliqlari kutubxona dorug'asi yoki kitobdor deb atalib, uning qo'l ostida ko'plab xushnavis xattot, qo'llari gul naqqosh musavvirilar, mohir lavvoh-u sahhoflar kitob yaratishga oid turli buyurtmalarni bajarganlar. Misol uchun, XV asrning birinchi yarmida Hirotda Mirzo Ulug'bekning inisi Boysung'ur kutubxonasida 40 ta xattot va bir qancha naqqosh qo'lyozma asarlarida nushalar ko'chirish va ularni bezash bilan band bo'lgan. 1424-1429 yillarda ushbu kutubxona boshlig'i Ja'far Boysung'uriy tomonidan Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" poemasi ko'chirtirilib, u 20 ta turli xil mazmundagi rangdor miniatyuralar bilan bezatilgan ⁵.

Xusayn Boyqoroning saroy kutubxonasida o'sha davrning ko'plab mashhur rassomlari: kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Shoh Muzaffar, Sulton Muhammad, Do'st Muhammad, Abdurazzoq, xattotlar Sulton Ali

⁴ Karomatov X. "AMIR TEMUR JAHON TARIXIDA" "SHARQ" Toshkent-2001. 171-172 b.

⁵ Muhammadjonov Abdalaxad. "TEMUR VA TEMURIYLAR SALTANATI" Toshkent-1994. 138-140 b.

Mashhadiy, Muhammad ibn Nur, Darvish Muhammad Toqi, Muhammad Xandon, Muhammad ibn Asxor, She'r Ali va boshqalar ishlashgan. Temuriylar davri badiiy qo'lyozmasining eng yuksak namunalari Samarqand, Buxoro, Tabriz, Mashhadida yaratilgan. Ularni bezaklarining xususiyatlari bo'yicha uch guruhga bo'lishimiz mumkin. Birinchisi miniatyurali badiiy qo'lyozmalar, ikkinchisi miniatyurasiz naqshlar bilan bezatilgan badiiy qo'lyozmalar, uchunchisi qadr-qimmat, fazilati xattot san'ati bilan belgilanadigan badiiy qo'lyozmalar. Qo'lyozma ijodkorlari va mehnatkashlari o'rtasida mehnat tahsilanishi va xar bir ustaning o'z san'atini mudom takomillashtirib borishi Amir Temur davlatida kitob san'atining cheksiz ravnaqiga yordam berdi ⁶.

XV asrning ikkinchi yarmida Hirotda kitobot san'ati yanada taraqqiy etdi. Xusayn Boyqaro va Alisher Navoiy saroy kutubxonasini nodir va kamyob asarlar bilan boyitishga g'oyat g'amxo'rlik qiladilar. Navoiyning ukasi Darveshali devonxona kutubxonasining dorug'asi etib tayinlanadi. Sultonali Mashhadiy va Rafiqiylar Sulton Xusayn va Alisher Navoiy buyurtmalari bilan ko'plab kitoblarni ko'chirib, nushalarini ko'paytiradilar. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, birgina Sultonali Mashhadiy Xusayn Boyqaro uchun har kuni 30 baytni va Navoiy uchun 20 baytni ko'chirar ekan. Rafiqiy ham bu san'at sohasida ham nihoyatda shuhrat qozonganlar ekan ⁷.

Biz ma'lumki Mirzo Ulug'bek ham fan va ma'daniyatga ulkan hissa qo'shgan buyuk olim hamdir. Uning ba'zi asarlari o'sha davrdagi kitobat san'ati juda zo'r rivojlanganligini ko'rsatadi. Yevropada Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi XVII asrdan boshlab o'rganila boshlangan. 1643-yili Oksford universiteti professori Jon Grivs o'z tadqiqot ishini Ulug'bekning "Zij" asariga bag'ishlagan. Bu ilk nashrdan so'ng Oksford universitetida, Yevropaning boshqa ilm-fan markazlarida qator ishlar nashr etilgan. Ulug'bekning "Zij" asari 1725-yili Grinvich observatoriyasining birinchi direktori D.Fleystidning "Osmon tarixi" kitobida eng mashhur jadvallar qatorida o'z aksini topgan. Ingliz sharqshunosi A.Sediyo 1839-1853-yillarda "Zij" asarini fors va fransuz tillarida nashr qilgan. XX asr boshlarida Mirzo Ulug'bek ilmiy merosi xususida AQSH va Yevropada qator asarlar chop etilgan. Sankt-Peterburg observatoriyasining asoschisi, asli Fransiyadan taklif etilgan astronom J.N.Delil Rossiyada Ulug'bek ilmiy merosini o'rganishni boshlab bergan. Bu ishni keyinchalik rus sharqshunoslari N.Beryozin, V.V.Bartold va boshqalar davom ettirganlar. 1908-1909-yillari Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasi xarobalarini ochilishi unga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirgan. Mustaqillik yillarida Mirzo Ulug'bek ilmiy merosini o'rganish,

⁶ Karomatov X. "AMIR TEMUR JAHON TARIXIDA" "SHARQ" Toshkent-2001. 173 b.

⁷ Muhammadjonov Abdalaxad. "TEMUR VA TEMURIYLAR SALTANATI" Toshkent-1994.141-145 b.

buyuk olim, madaniyat homiysiga ehtirom ko'rsatilgan. Ushbu olimning yubileyi O'zbekistonda keng nishonlangan ⁸.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Temuriylar davrida kitobot san'ati nihoyatda ravnaq topgan. O'z davrining buyuk kitoblari yozilgan va oldingi davrlarda yozilgan kitoblar qaytadan yozilib avlodlarga yetkazilgan. Temur saroylaridagi kutubxonalarda bir necha o'n ming kitoblar saqlangan. Temuriylar davrida qaytadan yozilgan kitoblar kiyingi davrlarda ham sharq-u g'arbda ilm-fanning taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Temuriylarning dunyodagi eng buyuk davlatlardan bo'lishiga ham, aynan ilm-fanning alohida o'rni bo'lsa ajab emas. Zero Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxari:

1. Muhammadjonov Abdulaxad. "TEMUR VA TEMURIYLAR SALTANATI" Toshkent-1994. 137-138 b.
2. Rahmonov M, Umarov a. «AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIYAT VA SAN'AT» (maqolalar) Toshkent-1996. 20-23 b.
3. Rahmonov M, Umarov a. «AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIYAT VA SAN'AT» (maqolalar) Toshkent-1996. 23-25 b.
4. Karomatov X. "AMIR TEMUR JAHON TARIXIDA" "SHARQ" Toshkent-2001. 171-172 b.
5. Muhammadjonov Abdulaxad. "TEMUR VA TEMURIYLAR SALTANATI" Toshkent-1994. 138-140 b.
6. Karomatov X. "AMIR TEMUR JAHON TARIXIDA" "SHARQ" Toshkent-2001. 173 b.
7. Muhammadjonov Abdulaxad. "TEMUR VA TEMURIYLAR SALTANATI" Toshkent-1994.141-145 b.
8. Sharafiddin Ali Yazdiy. "ZAFARNOMA". Toshkent "SHARQ" 1997. 2-140-betlar.

⁸ Sharafiddin Ali Yazdiy. "ZAFARNOMA". Toshkent "SHARQ" 1997. 2-140-betlar.